



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI
SOLIQ QO‘MITASI

100011, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 13-A uy.
Tel.: 71 244-97-16, 71 244-98-09, www.soliq.uz

2023 - yil 23 - avgust

20/5-86670 - son

“ASAXIY BOOKS”
mas’uliyati cheklangan jamiyatiga
STIR:305829008

manzil: Toshkent viloyati, Pskent tumani,
Bobur ko‘chasi 65-uy.

Jamiyatning 2023-yil 11-avgust kuni
murojaat qilgan arizasiga javoban

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-noyabrdagi 943-sonli qarori 1a-Ilova “Aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshirishda elektron to‘lov tashkiloti va (yoki) elektron tijorat platformalari (marketpleys) orqali elektron fiskal chek taqdim qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablariga muvofiq, Soliq qo‘mitasining “O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llanilishi ruxsat etilgan Marketpleyslarni Davlat reyestrini yuritish bo‘yicha” 2023-yil 22-avgustdagi 74-sonli majlis bayoniga asosan korxona tomonidan taklif etilgan “Asaxiy Market” rusumli marketpleysning 2.0.76-sonli versiyasi O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llanilishi ruxsat etilgan elektron tijorat platforma — **Marketpleys** sifatida Davlat reyestriga **kiritildi**.

Jamiyat tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-noyabrdagi 943-son va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-oktabrdagi PQ-5252-son qarorlari bilan tasdiqlangan talablarga qat’iy rioya etish;

“Asaxiy Market” rusumli marketpleysning texnik-funksiyalari va versiyalari o‘zgargan taqdirda Soliq qo‘mitasi hamda Fiskal ma’lumotlar operatorini xabardor etish vazifasi yuklatiladi.

Shuningdek, Davlat reyestridan o‘tmagan elektron to‘lov tizimi va (yoki) elektron tijorat platforma — **Marketpleys** aniqlanganda va yuqoridagi qarorlar talablariga rioya etilmagan taqdirda, belgilangan tartibda bartaraf qilgunga qadar cheklov qo‘yish uchun ishchi guruhga taklif kiritilishi yuzasidan ogohlantiriladi (*majburiyatlar ilovaga asosan*).

Murojaatni ko‘rib chiqish natijasi qanoatlantirmagan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq shikoyat qilishingiz mumkinligi tushuntiriladi.

Rais o‘rinbosari



A.Fayzibayev

Ijrochi: O.Parpiyev
Tel.: 712449809 (01826)
ID: 39666525
Sana: 23.08.2023

77ccc9c5

77ccc9c5

77ccc9c5

77ccc9c5

77ccc9c5

77ccc9c5